

HOMILADOR AYOLLAR LIBOSI HAQIDA OLINGAN SO’ROVNOMA TAHLILI

Ismoilova Azimaxon Habibullo qizi, magistrant

Namangan muhandislik – texnologiya instituti, Yengil sanoat fakulteti

Abdurahimova Manzura Sodiqovna magistrant

Namangan muhandislik – texnologiya instituti, Yengil sanoat fakulteti

Abdurakhim Khojiyev, texnika fanlari nomzodi, dotsent

Namangan muhandislik – texnologiya instituti, Yengil sanoat fakulteti

Annotatsiya: Maqolada Farg’ona viloyatida yashovchi homilador ayollar o’rtasida olib borilgan so’rovnoma haqida ma’lumotlar keltirilib, is’temolchi talabi o’rganilgan. Shu asosida tavsiala keltirib o’tilgan.

Tayanch so’zlar: Homilador ayol, moda, libos , is’temolchi talabi.

Homilador ayollar uchun hozirgi kunda ko’plab liboslarni tavsiya etish mumkin. Turli brendlar juda ko’p turli-xil uslubdagi liboslarni taqdim etadi. Bularni ichida ayollarni har tomonlama jalb etadiganlari juda kam. Shuning uchun ko’proq yakka buyurtma asosida libos tiktirishni yaxshi ko’rishadi. Bunda ayolning o’zini hohish istaklari bilan libos tayyor bo’ladi. Ko’plab ishlab chiqaruvchilar libosni soniga e’tibor bergan holda, sifat pasayish holatlari kuzatiladi.

O’z navbatida bunday holat iste’molchilarni e’tiroziga sabab bo’ladi. Bunday holatlarni oldini olish uchun aholini hohish- istaklari bilan qiziqib turish kerak. Hozirgi kunda ayollar nafaqat ona, balki ishbilarmon ayol bo’lib, zamon talabiga mos kiyinishni xohlaydi. Bunday paytda ayniqsa o’quvchi va ishlovchi ayollar uchun qulay, zamonaviy liboslar kerak.

Liboslarni taqdim etayotganda har bir millatni madaniyati, urf-odatlari, mentalitetiga ahamiyat berish kerak. Libos faqatgina tashqi ta’sirlardan himoya qilishi emas, millatni ko’zgusi bo’lishi kerak. Homilador ayol faqat o’zi uchun emas,

tug'ilajak farzandini sog'ligini e'tiborga holda libos tanlashi kerak. Bo'lajak ona o'zini libosda erkin his qilishi, tor bo'lmasligi, harakatni cheklamasligi, havo o'tkazuvchanligi yaxshi bo'lishini ta'minlashi lozim. Buning uchun faqatgina libosni bichimi emas, unga tanlangan material ham muhim hisoblanadi. Materiallar juda ko'p bo'lib, ularni turlari xilma-xil

Mato tanlashda ularni tarkibni o'rganish kerak, ya'ni tarkibidagi sun'iy tolalar ko'p bo'lmasligiga ahamiyatga olish lozim. Bo'lajak onalar uchun cho'ziluvchan, yumshoq, tabiiy matolarni taklif qilamiz. Matolarni libosni qanday bichimini tikilishiga qarab, tanlash muhim. Libosni taqilmalari ham alohida ahamiyatga ega. Ulardan misol qilib tugma, molniya, pistonli turlaridan foydalanish mumkin.


Taqilmalar nafaqat bezak uchun balki foydali bo'lishi kerak. Bu taqilmalardan foydalanilgan libosni farzandli bo'lib ham kiyish mumkin. Bu masalalarda turli vaqtlarda axoli o'rtasida so'rovnomalar

o'tkazilib turish maqsadga muvofiq. Shu jumladan o'tazilgan so'rovnomada ayollar o'z fikrlarini bildirishgan.

Tabiiy gazlamalardan homilador ayollar kiyim to'plamini ishlab chiqarish tadqiqi bo'yicha iste'molchilar talabini o'rganish maqsadida savolnoma tuzildi. Iste'molchilar talabiga muvofiq diagrammani ishlab chiqdik.


FARG'ONA vodiysida o'tkazilgan bu so'rovnomada homiladorlik davrida ayollar tomonidan ko'proq qanday libosga ehtiyoj sezishlarini aniqladik. Buning uchun 100 nafar homilador ayol bilan muloqot qilib savollar berildi. Ayollarning yosh guruhi 18 -40 gacha, homiladorlik davri 3-oylikdan 9- oygacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. O'tkazilgan so'rovnoma natijalari taxlil qilinib diagramma tuzildi. Quydagi natijalar olindi.

1- diagramma.



Ushbu diagramma taxliliga ko'ra iste'molchilarga ranglarning qaysi biri yoqishini aniqladik . Qatnashuvchilarning 43 nafari och rang, 22 nafari to'q rang, 35 nafari yorqin ranglarni tanlagan . Bundan kelib chiqib och ranglar hozirgi ayollarga ma'qul kelmoqda.

2- diagramma.




Libos uzunligi haqidagi savolga 25 nafar iste'molchi uzun, 25 nafar kalta, 50 nafar tizzagacha uzunlikni tanlagan. Albatta libosni uzunligi ayol uchun qulay bo'lishi muhim. Tizzagacha uzunlikdagi liboslar harakatni cheklamaydi, qulay.

3- diagramma.



Homiladorlik paytida libos kengligi haqidagi savolga iste'molchilarning 61 nafari keng, 36 nafari o'rtacha kenglikda, 3 nafari tor libosni ma'qul topishgan.

4-diagramma.



Qanday materialdan libos kiyishni hohlaysiz degan savolga iste'molchilarning 90 nafari tabiiy, 4 nafari sun'iy, 6 nafari trikotaj matosini tanlagan. Tabiiy mato doim har bor inson uchun qulayligini yo'qotmaydi.

5-diagramma.



Qaysi uslubdagi libos yoqadi degan savolga 39 nafar iste'molchi sarafan, 11 nafari xalat, 50 nafari ko'ylak javobini tanlagan.



1-rasm. So'rovnoma o'tkazilgan jaraon.

Xulosalar.

Xulosa qilib bu diagrammada Farg’ona vodiysida homilador ayollarni , ya’ni iste’molchilarni talabi o’rganildi. Shu so’rovnoma natijasida homilador ayollarga hozirgi kunda qanday liboslar yoqishi aniqlandi. Natijalardan kelib chiqib keng,

tizzagacha uzunlikdagi, och rangli ko’ylaklar yoqishi ,ko’ylaklar tabiiy matodan bo’lishi iste’molchilarga ma’qul bo’ldi.Yurtimiz bozorlarida aholi talabidan kelib chiqib maxsulotlar ishlab chiqarish maqsadga muofiq bo’ladi.Ayniqsa homiladorlik davri uchun liboslar qulay, zamonaviy, tabiiy matodan ishlab chiqarilgani aholiga , qulaylik olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. X.X.Kamilova . N.K. Hamroyeva . “Tikuv buyumlarini konstruksiyalash” .
2. N.S.Gaipova . M.Z. Ismatullayeva “Tikuvchilik texnologiyasi asoslari”.
3. Y.A.Yanchevskaya.”Ayollar kiyimlarini konstruksialash”
4. J.Ochilov. ”Gazlamashunoslik”
5. W.W.W. TIKANCHIK.RU
6. WWW.MOLDES DIAS.RU.
7. Moda .uz.